| MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANISHDA EKOLOGIK INNOVATSIYALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH YO'NALISHLARI .....                                        | 495 |
| Ismatov Sharofiddin Asatulloevich                                                                                                        |     |





|                                                                                                                                                             |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| THE ESSENCE OF THE OPTIMAL COST STRATEGY .....                                                                                                              | 500 |
| Sodiqov Mirakhror Abbos ugli                                                                                                                                |     |
| TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TOG'-KURORT ZONALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI (CHORVOQ ERKIN TURISTIK ZONASI MISOLIDA) .....                      | 504 |
| Shomurodova Shahnoza G'ayratovna                                                                                                                            |     |
| ICHKI AUDIT SIFATI VA SAMARADORLIGI TUSHUNCHALARINING IQTISODIY MAZMUNI HAMDA ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI .....                                             | 509 |
| Ergashev Olloyor Furqat o'g'li                                                                                                                              |     |
| QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH VA UNI HISOBINI YURITISH.....                                                                     | 517 |
| Abdullayev Abdurauf                                                                                                                                         |     |
| TIJORAT BANKLARINING RISKLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....                                                                                     | 522 |
| Kudaybergenova Guzal Kuanishbayevna                                                                                                                         |     |
| TIJORAT BANKLARIDA KORRUPTSIYAVIY-KOMPLAENS MUAMMOLARI: TAHLIL VA YECHIMLAR .....                                                                           | 527 |
| Yunusov Baxtiyor Shavkatovich                                                                                                                               |     |
| MAISHIY XIZMAT KO'RSATISHNING SIFAT NAZORATINI HAMDA TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                | 532 |
| Meliyev X.T.                                                                                                                                                |     |
| ОЦЕНКА КАЧЕСТВА СЕРВИСА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ОПРОСА .....                   | 541 |
| Усманова Азиза Баходировна                                                                                                                                  |     |
| RAQAMLI BANK XIZMATLARI ORQALI MOLIVAVIY INKLYUZIVLIKNI KENGAYTIRISH.....                                                                                   | 545 |
| Azlarova Mushtariybegim Abror qizi                                                                                                                          |     |
| QURILISH KORXONALARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING AHAMIYATI .....                                                                           | 550 |
| Egamon Raxmatillo Mirolimovich, Bobobekov Davron Gafurovich                                                                                                 |     |
| FINANCIAL MARKET PARTICIPANTS: A CLASSIFICATION BY ROLE AND RESPONSIBILITY.....                                                                             | 553 |
| Khotamkulova Madina                                                                                                                                         |     |
| ФОРМИРОВАНИЕ «ТУРИСТИЧЕСКОЙ МАХАЛЛИ» КАК ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ В СФЕРЕ ГОСТЕВЫХ ДОМОВ УЗБЕКИСТАНА .....                   | 559 |
| Иргашева Нигина Салохиддиновна                                                                                                                              |     |
| BANKLARDA KREDIT GAROVI BILAN ISHLASHNING XORIJ ILG'OR TAJRIBASI VA UNDAN O'ZBEKISTON BANKLARI AMALIYOTIDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....                    | 567 |
| Sh. Saidov                                                                                                                                                  |     |
| MILLIY UGLEROD SAVDOSI TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....                                                                    | 573 |
| Islamov Shoxzod Shuxrat o'g'li                                                                                                                              |     |
| THE NECESSITY OF CREATING A BUSINESS ENVIRONMENT AND ITS ROLE AND SIGNIFICANCE IN THE NATIONAL ECONOMY .....                                                | 582 |
| Amanov Davron Ravshan ugli                                                                                                                                  |     |
| SUV RESURLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....                                                                                            | 588 |
| Saidov Muhammadali Hakimovich, Mahammatov Hoshim, Esanbekov Diyorbek                                                                                        |     |
| ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА БАНКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО И ПРИНЦИПАМИ ESG .....                                              | 595 |
| Насирдинов Шарифджон Изатуллоевич                                                                                                                           |     |
| ОЦЕНКА ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭЛЕКТРОБУСА.....                                                                                                        | 600 |
| Мухитдинов Акмал Анварович, Касимов Омил Камалович, Саидов Азамат Илхом угли                                                                                |     |
| XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA DUKKAKLI DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH YO'NALISHLARI (HINDISTON TAJRIBASI MISOLIDA)..... | 608 |
| Mirsayd Xudaybergenov                                                                                                                                       |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLINING FAROVONLIGI VA DAROMAD MANBALARINI STATISTIK TAHLILI .....                                                             | 612 |
| Mamatkulov Baxtiyor Xalmuradovich                                                                                                                           |     |



|                                                                                                                                                                                   |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                 | 618 |
| Muxamedjanova Maxfuza Baxodir qizi                                                                                                                                                |     |
| MOLIYAVIY AKTIVLARINING IQTISODIY MOHIYATI, MAZMUNI HAMDA KLASSIFIKATSIYASI.....                                                                                                  | 627 |
| Odiljonova Oybachin Fayzullo qizi                                                                                                                                                 |     |
| XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ORQALI MAMLAKATIMIZ LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI TAHLILI.....                                                                                 | 631 |
| Rasulova Dilfuza Valiyevna                                                                                                                                                        |     |
| HUDUDNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY SALOHİYATNING O'RNINI.....                                                                                                            | 636 |
| Avazbek Xalbekov                                                                                                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SABZAVOTCHILIK TARMOG'INING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....                                                                                              | 642 |
| Sobir Xasanov                                                                                                                                                                     |     |
| IMPACT OF REGIONAL INFRASTRUCTURE AND NATURAL RESOURCE UTILIZATION ON THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL TOURISM (A DISTRICT-LEVEL ANALYSIS OF THE SAMARKAND REGION, UZBEKISTAN) ..... | 650 |
| Toyirova Shohista Bobobekovna                                                                                                                                                     |     |
| INNOVATION IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OMILLARI .....                                                                      | 657 |
| Talapova Nargiza Baxriddinovna                                                                                                                                                    |     |
| BOZOR BEQARORLIGI SHAROITIDA BANK OBRO'SINI STRATEGIK RESURS SIFATIDA BARQARORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....                                                           | 661 |
| Yuldasheva Kamola Qosimjonovna, Ziyaeva Muhtasar Mansurdjanovna                                                                                                                   |     |
| O'ZBEKISTONDA DAVLAT PENSIYA TIZIMINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI .....                                                                                      | 667 |
| Pardayev Farrux Muzaffarovich                                                                                                                                                     |     |
| RAQAMLI TRANSFORMASIYA SHAROITIDA MENEJERLARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH.....                                                                                   | 671 |
| Sharipova Zulfiya Shokirjonovna                                                                                                                                                   |     |
| FUQAROLAR ISHTIROKIGA ASOSLANGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH TIZIMI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI .....                                                                 | 677 |
| Shukurova Parizod, Soatova Nodira Boboxonovna                                                                                                                                     |     |
| O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARINING BARQAROR RIVOJLANISH YO'NALISHLARIDA QISHLOQ TURIZMI VA EKOTURIZM – ASOSIY USTUVOR YO'NALISHLARI .....                                          | 682 |
| Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi                                                                                                                                                 |     |
| KORXONALARDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA HISOBINING ROLI.....                                                                                | 691 |
| Alimbay Shamshetov                                                                                                                                                                |     |
| BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARINING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI .....                                                                                         | 694 |
| Saule Ibragimova                                                                                                                                                                  |     |
| ANALYSIS OF THE STATE OF ELECTRICITY GENERATION BY WIND POWER PLANTS.....                                                                                                         | 698 |
| Saidov Mash'al Samadovich                                                                                                                                                         |     |
| TRANSFORMING TOURISM EDUCATION IN UZBEKISTAN: AN INSTITUTIONAL ANALYSIS OF PERSONNEL TRAINING SYSTEMS.....                                                                        | 706 |
| Abdullakhujaev Abdukodirkhuja, Ochilova Hilola Farmonovna                                                                                                                         |     |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                                               | 713 |
| Elomonov Dadaxon Ozodullayevich                                                                                                                                                   |     |



# RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH



**Elomonov Dadaxon Ozodullayevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Email: dadaxonelomonov9006@gmail.com

ORCID: 0009-0001-6331-1960

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida audit tizimini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi. "O'zbekneftgaz" AJ misolida SAP, ERP tizimi asosidagi moliyaviy nazorat mexanizmlari tahlil qilinib, sohada Big Data, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini qo'llashning iqtisodiy samaradorligi baholangan. Tadqiqot davomida yetkazib berish zanjirida blokcheynni qo'llashning matematik algoritmi va 2024–2025-yillardagi xalqaro standartlar (ISA) asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli audit, SAP, ERP, "O'zbekneftgaz" AJ, blokcheyn, sun'iy intellekt, IFRS, ISA, Big Data, iqtisodiy samaradorlik.

**Abstract.** This article examines the issues of transforming the audit system in the digital economy. In the context of "Uzbekneftegaz" JSC, the mechanisms of financial control based on the SAP ERP system are analyzed, and the economic efficiency of using Big Data, AI, and blockchain is evaluated. The study proposes a mathematical algorithm for the blockchain-based supply chain and provides recommendations for improving national audit standards in line with ISA 2024–2025 updates.

**Key words:** digital audit, SAP ERP, "O'zbekneftgaz" JSC, blockchain, artificial intelligence, IFRS, ISA, Big Data, economic efficiency.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются актуальные вопросы трансформации системы аудита в условиях цифровой экономики. На примере АО "Узбекнефтегаз" анализируются механизмы финансового контроля на основе системы SAP ERP и оценивается экономическая эффективность использования технологий Big Data, искусственного интеллекта и блокчейна в отрасли. В ходе исследования разработан математический алгоритм использования блокчейна в цепочке поставок и рекомендации, основанные на международных стандартах (ISA) 2024–2025 годов.

**Ключевые слова:** цифровой аудит, SAP, ERP, АО "Узбекнефтегаз", блокчейн, искусственный интеллект, МСФО, МСА, большие данные, экономическая эффективность.

## KIRISH

Global iqtisodiy muhitda shaffoflik va hisobdorlik talablarining kuchayishi auditorlik kasbini tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. An'anaviy audit uslubi asosan tarixiy ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, u real vaqt rejimidagi xavflarni aniqlashda yetarli moslashuvchanlikka ega emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va energetika sohasini isloh qilish borasidagi qarorlari doirasida "O'zbekneftgaz" AJ kabi strategik korxonalarning moliyaviy hisobotlarini MHXS (IFRS) asosida shakllantirish va xalqaro standartlarga (ISA) muvofiq auditdan o'tkazish ustuvor vazifa etib belgilandi. Tadqiqotning dolzarbligi





shundaki, yirik sanoat xoldinglarida ma'lumotlar oqimining haddan tashqari ko'pligi inson omiliga asoslangan auditning samaradorligini pasaytirmoqda, bu esa raqamli audit algoritmlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali mazkur muammolarni bartaraf etish mumkin. Avtomatlashtirilgan hisob dasturlari va axborot tizimlari moliyaviy ma'lumotlarni tez va aniq qayta ishlash, hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash hamda axborot xavfsizligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, raqamli yechimlar korxonalar faoliyatida shaffoflikni oshirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va mas'uliyatni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois moliyaviy hisobotlar auditini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi raqamli texnologiyalarni audit jarayoniga integratsiya qilish orqali tekshiruvlar sifatini oshirish va sohadagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish va audit tizimini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Xalqaro tajribada mazkur masala ko'proq avtomatlashtirilgan hisob dasturlari, elektron hisobot tizimlari va bulutli xizmatlar (cloud accounting) yo'nalishida o'rganilgan. Xorijiy olimlardan M. Romney, P. Steinbart [3] asarlarida raqamli buxgalteriya axborot tizimlarining nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. C. Warren, J. Reeve, J. Duchac [4] moliyaviy va boshqaruv hisobi jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratgan.

Shuningdek, auditni raqamlashtirish bo'yicha nazariy asoslar xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Vasarhelyi, M. A. ta'kidlaganidek, Big Data tahlili auditorlarga tanlanma usulidan voz kechib, yoppasiga nazoratni amalga oshirish imkonini beradi [5]. Hussain, M., Al-Ahmadi, S. va boshqalar blokcheyn texnologiyasining "uch tomonlama qayd" tizimini joriy etish orqali audit xavfini minimallashtirish mumkinligini isbotlashgan [6]. O'zbekistonlik olimlardan B. A. Xasanov va A. K. Ibragimovlar o'z tadqiqotlarida O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqaruv audit va ichki nazoratni raqamlashtirish masalalarini yoritib berganlar [7,8]. Biroq aynan neft-gaz sohasi kabi murakkab texnologik zanjirga ega bo'lgan korxonalar uchun raqamli auditning maxsus metodologiyasi hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. IFRS Foundation [9] tomonidan qabul qilingan xalqaro standartlarda raqamli hisobotni shakllantirish va uning shaffofligiga oid talablar belgilangan. Amaliyotda esa 1S: Buxgalteriya, SAP, Oracle Accounting, Quick Books kabi dasturiy ta'minot vositalari keng qo'llanilmoqda. Adabiyotlarda ushbu dasturlarning hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirish, hisobotlarni tezkor tayyorlash va inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirishdagi ahamiyati qayd etilgan.

Tadqiqotlarda moliyaviy hisobotlar auditida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali shaffoflikni ta'minlash, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va hisobot tizimini xalqaro talablarga moslashtirish zarurligi ta'kidlangan. Tadqiqotning maqsadi — raqamli texnologiyalar yordamida "O'zbekneftgaz" AJda moliyaviy hisobotlar auditini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va uning iqtisodiy samaradorligini asoslab berishdan iborat. Raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat vaqtini tejash, balki audit xavfini minimallashtirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola "Raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy hisobotlar auditini takomillashtirish" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy baholash va ekonometrik modellashtirish metodlari qo'llanildi. "O'zbekneftgaz" AJning SAP S/4HANA tizimidagi ma'lumotlar bazasi empirik baza sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar tizimli tahlil, qiyosiy baholash, matematik modellashtirish va keys-stadi (case study) metodlaridan foydalanildi. "O'zbekneftgaz" AJning 2021–2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari va auditorlik xulosalari empirik baza sifatida olindi. Audit jarayonini takomillashtirish uchun quyidagi algoritmik yondashuv taklif etildi: Data Extraction (ETL) — korxonaning SAP tizimidan ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri olish; Continuous Auditing (uzluksiz audit) — yil yakunini kutmasdan, har choraklik monitoring tizimini joriy etish; Risk-Based Approach (ISA 315) — risklarni aniqlashda sun'iy intellektning regression modellaridan foydalanish kabilardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda "O'zbekneftgaz" AJda SAP S/4HANA tizimi muvaffaqiyatli joriy etilgan. Bu auditorlarga korxonaning 50 dan ortiq sho'ba korxonalari ma'lumotlariga masofaviy kirish imkonini beradi. Raqamli auditning kengayishi ma'lumotlar xavfsizligi bilan bevosita bog'liq. "O'zbekneftgaz" AJda kiber-audit (Cyber Audit) tizimini



joriy etish taklif etiladi. Bunda auditor nafaqat moliyani, balki IT-infratuzilmaning chidamliligini ham tekshiradi (1-jadval).

1-jadval. Yirik sanoat korxonalarida auditning raqamlashish darajasi (2025-y. holatiga)<sup>1</sup>

| Ko'rsatkich              | O'zbekneftgaz AJ | Navoiy KMK  | Saudi Aramco  | Angliya            |
|--------------------------|------------------|-------------|---------------|--------------------|
| ERP tizimi turi          | SAP S/4HANA      | Oracle      | SAP Custom    | Microsoft Dynamics |
| Auditning avtomatlashuvi | 45%              | 38%         | 82%           | 78%                |
| Masofaviy audit ulushi   | 60%              | 40%         | 90%           | 95%                |
| Blokcheyn qo'llanishi    | Sinov bosqichida | Mavjud emas | Joriy etilgan | Joriy etilgan      |

“O'zbekneftgaz” AJ tajribasini Navoiy KMK bilan solishtirganda shuni aytish mumkinki, konchilik sanoatida inventarizatsiya va asosiy vositalar auditida dronlardan foydalanish yuqori natija beradi. Biroq “O'zbekneftgaz” AJda tranzaksiyalar zanjiri murakkab bo'lgani uchun qazib olishdan to'nyilg'i quyish shoxobchasi gacha bo'lgan jarayonda “Continuous Auditing” (uzluksiz audit) modeli ko'proq dolzarbdir. Xalqaro tajriba (Saudi Aramco) shuni ko'rsatadiki, raqamli auditga o'tish uchun nafaqat dasturiy ta'minot, balki “Internal Audit Cloud” — ichki auditning bulutli omborini yaratish zarur. Bu ma'lumotlarni qayta ishlash tezligini 150–200% ga oshiradi. Audit vaqtining qisqarishini quyidagi funksiya orqali ifodalash mumkin:

“O'zbekneftgaz” AJning moliyaviy barqarorligi va raqamlashtirish jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida korxonaning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Raqamlashtirish koeffitsiyenti  $\$K_{\text{dig}}\$$  sifatida IT-xarajatlarning umumiy operatsion xarajatlardagi ulushi va avtomatlashtirilgan jarayonlar qamrovi olindi (2-jadval).

2-jadval. Moliyaviy ko'rsatkichlar va raqamlashtirishning qiyosiy dinamikasi<sup>2</sup>

| Yillar | EBITDA (mlrd so'm) | Sof foyda (mlrd so'm) | Debitorlik qarzi (mlrd so'm) | Kreditorlik qarzi (mlrd so'm) | Raqamlashtirish koeffitsiyenti (Kdig) |
|--------|--------------------|-----------------------|------------------------------|-------------------------------|---------------------------------------|
| 2021   | 10 200             | 1 800                 | 15 900                       | 14 100                        | 0.38                                  |
| 2022   | 12 500             | 2 400                 | 14 200                       | 13 800                        | 0.52                                  |
| 2023   | 14 800             | 3 100                 | 13 100                       | 12 500                        | 0.68                                  |
| 2024   | 16 200             | 3 850                 | 12 400                       | 11 900                        | 0.75                                  |
| 2025   | 18 500             | 4 600                 | 11 200                       | 10 500                        | 0.88                                  |

Ushbu jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish koeffitsiyentining 0.12 dan 0.88 gacha ko'tarilishi (SAP tizimining to'liq integratsiyasi) debitorlik qarzdorligining nazoratini kuchaytirib, uning o'sish sur'atini jilovlashga xizmat qilgan. EBITDA ko'rsatkichining o'sishi esa operatsion samaradorlik va raqamli nazorat natijasida tannarxning pasayishi bilan korrelyatsiyaga ega ( $R^2 = 0.84$ ). Neft va gaz sohasida mahsulotning qazib olinishidan to yakuniy iste'molchigacha bo'lgan zanjiri murakkab bo'lib, audit jarayonida ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirish ko'p vaqt talab etadi. Blokcheyn tizimida har bir tranzaksiya “hash” funksiyasi orqali zanjirga bog'lanadi. Yetkazib berish zanjiridagi har bir bosqichni  $\$B_i\$$  blok deb olsak, undagi ma'lumotlar yaxlitligi quyidagicha ta'minlanadi:  $\$H_i = f(Data_i, H_{i-1}, Timestamp, Nonce)\$$ . Bu yerda:  $\$H_i\$$  – joriy blokning xeshi,  $\$Data_i\$$  – yetkazib berilgan mahsulot hajmi, narxi va sifat ko'rsatkichlari;  $\$H_{i-1}\$$  – avvalgi blokning xeshi (zanjiriy bog'liqlik). Validatsiya – auditorlik dasturi  $\$H_i \equiv f(Data_i, H_{i-1})\$$  shartni tekshiradi. Agar natija False bo'lsa, tizim ma'lumotlar o'zgartirilganligi haqida avtomatik signal beradi. Smart-kontrakt tahlili – agar  $\$V_{\text{delivered}} < V_{\text{contracted}}\$$  (yetkazib berilgan hajm shartnomadagidan kam) bo'lsa, tizim avtomatik ravishda jarima hisoblaydi va uni audit hisobotida anomaliya sifatida ko'rsatadi. Ushbu algoritmnining “O'zbekneftgaz” AJ ta'minot tizimiga joriy etilishi “inson omili” tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlarni 15–20% ga kamaytirish imkonini beradi. Tadqiqot doirasida “O'zbekneftgaz” AJ tizimidagi 100 nafar mutaxassis, shundan 60 nafar buxgalter, 25 nafar ichki auditor, 15 nafar IT-auditor o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi (3-jadval).

1 Manba: muallif ishlanmasi

2 Manba: muallif ishlanmasi

3-jadval. “O‘zbekneftgaz” AJ tizimida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalarining taqsimoti<sup>3</sup>

| Savol yo‘nalishlari             | Yuqori (%) | O‘rta (%) | Past (%) |
|---------------------------------|------------|-----------|----------|
| SAP tizimida ishlash ko‘nikmasi | 42         | 45        | 13       |
| Big Data tahliliga tayyorlik    | 15         | 35        | 50       |
| Blokcheyn haqida tushuncha      | 8          | 22        | 70       |
| Raqamli auditga bo‘lgan ishonch | 68         | 25        | 7        |

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, xodimlarning SAP kabi ERP tizimlarida ishlash ko‘nikmasi yetarli darajada, 87% yuqori va o‘rta, biroq Big Data va blokcheyn kabi innovatsion vositalar bo‘yicha bilim darajasi pastligicha qolmoqda. Qiziqarli jihati shundaki, respondentlarning 68 foizi raqamli audit tizimi shaffoflikni oshirishga qattiq ishonch bildirgan. Bu esa sohada texnik baza mavjudligini, ammo kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha “Raqamli ta’lim” dasturi zarurligini ko‘rsatadi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, xodimlarning 68 foizi raqamli audit tizimiga to‘liq ishonch bildirgan. Biroq Big Data va blokcheyn bo‘yicha ko‘nikmalar past darajada qolmoqda (50–70%). Bu esa kadrlar transformatsiyasini ISA 315 va ISA 500 ning 2024-yilgi yangi tahrirlari asosida amalga oshirishni talab qiladi. ISA 315 (Revised 2019/2024) — “Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement”. Ushbu standartning yangi talqinida auditorlardan korxonaning IT-infratuzilmasini va axborot tizimlarini chuqur tushunish majburiyati yuklatilgan. IFRS S1 & S2 (2024) — “General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information”. “O‘zbekneftgaz” AJ kabi energetika korxonalari uchun ESG ekologik va ijtimoiy mas’uliyat hisobotlarining raqamli auditi majburiy trendga aylanmoqda. ISA 500 (Revised) — “Audit Evidence”. 2024-yilgi o‘zgartirishlar avtomatik ravishda yaratilgan va “bulutli” tizimlarda saqlanadigan ma’lumotlarni asosiy auditorlik dalili sifatida tan olishni kengaytirgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

“O‘zbekneftgaz” AJ misolida o‘tkazilgan ko‘p yillik statistik va metodologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy hisobotlar auditini raqamlashtirish shunchaki texnik jarayon emas, balki korxonaning bozor qiymatini oshiruvchi strategik omildir. Moliyaviy hisobotlar auditini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bugungi kunda muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Umuman xulosa qilib shuni ta’kidlashimiz mumkinki:

Birinchidan — “O‘zbekneftgaz” AJ uchun SAP bazasida “Auditorlik ishchi joyi” (Auditor Dashboard) modulini yaratish zarur. Bu real vaqtda risklarni vizuallashtirish imkonini beradi.

Ikkinchidan — auditorlar uchun “Data Analytics in Audit” xalqaro sertifikatlash tizimini joriy etish kerak.

Uchinchidan — “Audit-as-a-Service” (AaaS) konsepsiyasini joriy etish orqali barcha sho‘ba korxonalarni yagona auditorlik xabiga ulash zarur.

To‘rtinchidan — audit jarayonida “Random Forest” va “Regression Analysis” kabi xalqaro usullardan foydalanib, moliyaviy xatoliklarni bashorat qilish tizimini yaratish kerak.

Beshinchidan — xalqaro audit standartlarining (ISA) raqamli transformatsiyasi bo‘yicha milliy qo‘llanma ishlab chiqish va uni “O‘zbekneftgaz” AJ kabi yirik xoldinglarda sinovdan o‘tkazish zarur.

Oltinchidan — inson omili ta’sirini kamaytirish orqali ma’lumotlar haqqoniyiligini 98% gacha oshirish mumkin.

Yettinchidan — SAP tizimi orqali masofaviy audit ulushini 85% ga yetkazish va xarajatlarni tejash, mahsulot tannarxini pasaytirish mumkin.

Sakkizinchidan — audit standartlariga “Raqamli dalillarni to‘plash va saqlash tartibi” bo‘yicha alohida bo‘lim kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot tizimlari va avtomatlashtirilgan dasturlardan foydalanish audit jarayonlarini tezkor, aniq va ishonchli tarzda amalga oshirish imkonini yaratadi. Raqamli yechimlar nafaqat moliyaviy hisobotlarni shaffof va xalqaro standartlarga muvofiq yuritishga, balki axborot xavfsizligini ta’minlash, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va mas’uliyatni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida kadrlar malakasini oshirish, texnik infratuzilmani rivojlantirish va axborot xavfsizligini mustahkamlash kabi masalalar hal etilishi zarur. Audit tizimini raqamli asosda takomillashtirish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni kuchaytirish va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3 Manba: muallif ishlanmasi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni //
2. M.Romney, P.Steinbart Accounting Information Systems. – Pearson, 2021.
3. C.Warren, J.Reeve, J.Duchac Financial and Managerial Accounting. – Cengage Learning, 2020.
4. Vasarhelyi, M. A. "Continuous Auditing: Theory and Application". 2021
5. Hussain, M., & Al-Ahmadi, S. "Blockchain for Financial Audit: A Systematic Review". Journal of Financial Data Science. 2022.
6. Хасанов Б.А. Саноат корхоналарида ички аудит методологияси. Т.: ТДИУ. 2022.
7. Ибрагимов А.К. ва бошқалар. "Молиявий назорат ва аудит". Т.: "Iqtisod- Moliya", 2022.
8. IFRS Foundation. International Financial Reporting Standards. - London, 2022.





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 3

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---